

# Sharof Boshbekovning “Temir xotin” komediyasida hayot haqiqatlari

Durdona Muhammadjonovna Ergasheva  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada dramada aks ettirilgan voqea hodisalar va ularga bo‘lgan munosabatlar aks ettirilgan. Ushbu asar asosida hayot haqiqatlari, dialoglar orqali esa qahramonning yaratishilishi mujassamlashgan.

**Kalit so‘zlar:** qahramonning nutqi, xarakteri, hayot, dialoglar, detallar, hayotiy realliklar

## The realities of life in Sharaf Boshbekov’s comedy “Iron Woman”

Durdona Muhammadjonovna Ergasheva  
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after  
Alisher Navoi

**Abstract:** In the article, the events and the relations to them are reflected in the drama. Based on this work, the realities of life and the creation of the hero are embodied through dialogues.

**Keywords:** character’s speech, character, life, dialogues, details, life realities

### Kirish

Har bir ijodkor biror asar ustida ishlar ekan, ma’lum bir g‘oyalar asosida ma’lumotlar to‘playdi, ularni hayotiy tajribalari bilan boyitadi. Ijodkorning mahorati ham aynan hayotiy reallikni badiiy tasvirlashida namoyon bo‘ladi. Zero, “Badiiy mahorat, bir tomondan - real hayotdagi yangilikni ko‘ra bilish va uni adabiyot vositalari ila tahlil qila bilish san’ati hisoblansa, ikkinchi tomondan - san’atning sirlarini, uning texnikasini chuqur bilishga bog‘liq hisoblaydi”.

Drammatik asarlarni yaratishda avvalo tomoshabin fikri hisobga olinadi va qahramon rivojlanish darajasi asosida hayotiy reallikni aks ettiradi.

Sharof Boshbekovning “Temir xotin” komediyasida qahramon xarakterini ochib berishga, shu bilan birga o‘sha davrdagi jamiyatdagi ba’zi amaldorlarni ta’kidlab o‘tishga qaratilgan asardir. Sharof Boshbekovning “Temir xotin” dramasi butun o‘zbek xalqi juda yaxshi bilishadi. O‘tgan asrning 80-yillarida yaratilgan ushbu asar

o‘z vaqtida shov-shuv bo‘lganligi hamda 20 dan ortiq tilga tarjima qilinganligi uchun bu asarni hozirgacha sevib o‘qiymiz.

Asarning bosh qahramoni Qo‘chqorvoy bo‘lib, u traktorchilik bilan shug‘ullanar edi. Aybi - ko‘p ichishi. Ichib olgach to‘polon ko‘tarishi. Deyarli har kuni ahvol shu edi. Holat xotini va bir nechta hamqishloqlari mastligida daraxtga bog‘lab qo‘yish darajasigacha yetib boradi. Asar voqealari aynan shu yerdan boshlanadi. Erining bunday qiliqlaridan bezor bo‘lgan xotini ketsam o‘zgarar, degan xayolda bolalarini ota uyiga olib ketib qoladi. Bu orada Olimtoy ismli olim jiyani kelib qoladi. U 7 yil davomida ixtirosi ustida ishlab, robot, robot bo‘lgandayam ayol ko‘rinishidagi robotni yaratadi. Bu kashfiyotini sinovdan o‘tkazish maqsadida qishloqqa, Qo‘chqorvoyning uyiga olib keladi. Bu robotdan paxta terish mashinasi o‘rnida foydalanish ko‘zlangan edi. Aynan muallif xalqning hamma dardini, dod-fig‘onini, achchiq alamlarini asarda yoritib berishga harakat qilgan. Kitobxonni o‘yga soladigan vaziyat: Aslida robot kim? Alomatxonmi yoki Qo‘chqorvoy va unga o‘xshagan mehnatkashlarmi? Axir ishla desa ishlaydigan, paxta konida turib o‘ziga paxta topilmaydigan va bu ishi uchun lom-mim deyolmaydigan, haq-huquqini talab qilolmaydigan kimsalarning robotdan nima farqi qoladi?

Tuzumdan, jamiyatdan noroziligini to‘laqonli bildira olmaydigan, “sen yaxshi yashayapsan” desa, “men yaxshi yashayapman ekan” deb ketaveradigan, tepadan qanday siyosat kelsa, shunga og‘ishib ketaveradigan xalqning robotdan nima farqi, qanday xususiyati, fazilati bor? Alomatxonga turli kassetalar o‘rnatiladi va shunga qarab uning fe‘l-atvori belgilanadi. Biri qo‘yilsa, qarg‘ovchi johil, birida “o‘yin-kulgi” qiladigan, birida zo‘ravon, birida muloyim ayol obrazlariga kirishadi. Yana bitta kasseta bor ediki, u hali sinovdan o‘tkazilmagandi. Agar o‘sha qo‘yilsa, robot o‘ylay boshlardi. Natijada, o‘z haq-huquqlarini talab qilishni boshlashi mumkin edi. Olimtoy shundan qo‘rqib bu kasseta qo‘yilishini Qo‘chqorvoyga taqiqlab qo‘yadi va shu tarzda asar voqealari keng ochib beriladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida muallif nima demoqchi? Ko‘p yillar mobaynida “tepadagilar” millatning o‘y-fikrini, dunyoqarashini, mafkurasini ayni shu kassetalar singari boshqarib kelganligi hech birimizga sir emas. O‘zlari xalq timsolida qanday obraz istasa, o‘sha obrazli kassetani millat ongiga joylashtirdi. Lekin zinhor va zinhor “haq-huquqni talab qilishga” chorlovchi kassetani o‘zlari ham qo‘ymadi, boshqalar qo‘yishiga ham yo‘l ochib bermadi. Bu ularning manfaatiga zid hisoblanar edi. Axir, ularga aytganni qiladigan, o‘z manfaatlari uchun xizmat qiladigan tayyor robotlar jamiyati kerak edi. Albatta, yuvoshgina, nima deyishsa, “xo‘p” deyidigan, noroziligini bildirishga botina olmaydigan, hayotidan nolimaydigan, ammo kun ko‘rmaydigan Qo‘chqorlar yetishib chiqishi aniq. Biz ayollarimizni qadrlamas, ularning zaifligini hisobga olmay, yelkasidagi yukni ko‘tarishiga yordam bermas va ma‘nan qo‘llamas ekanmiz, kelajagimiz buyuk bo‘lishiga umid ham qilmasak bo‘laveradi.

Farzandlarimiz qachon bizdan ko'ra baxtli bo'loladi, qachonki ayollarimiz baxtli bo'lsa. Bola onasining ko'zida so'ngsiz charchoq, mungni emas, baxtni, kelajakka umidni ko'rsagina o'zini baxtli his qila oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sharof Boshbekovning bu asari aynan bir nechta qahramon orqali butun mamlakatdagi ijtimoiy illatlarni yetarlicha hajvga olgan. Qochqorvoy obrazi orqali o'sha vaqtdagi tuzumga tushib qolgan xalq timsolini ko'rishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sharof Boshbekov "Temir xotin" 2013 Toshkent
2. Umurov H Aadabiypotshunoslik nazariyasi. T: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.79-b.
3. Boshebekov Sh. Temir xotin. www. Ziyouz.com kutubxonasi 1-b.
4. Hotam Umurov, Adabiyotshunoslik nazariyasi, Darslik, A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, Toshkent 2004